

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI
ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI
JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
PEDAGOGIKA - PSIXOLOGIYA FAKUL'TETI
DEFEKTOLOGIYA KAFEDRASI**

“Himoya qilishga ruxsat beraman”
Pedagogika - psixologiya fakul'teti dekani
_____ dots R. Abdurasulov
“ _____ ” _____ 2014 y.

**5141800 – Defektologiya yo'nalishi bo'yicha bakalavr
darajasini olish uchun**

Kamolova Lazizaning

**“ YORDAMCHI MAKTAB O'QUV PREDMETLARINI MODULI O'QITISH
TEHNOLOGIYALARINI YARATISHNING AMALIY AXAMIYATI”
MAVZUSIDA BAJARILGAN**

BITI RUV MALAKAVIY ISH

Bajaruvchi: Kamolova Laziza

Ilmiy rahbar: t.f.n. G`.Arifxodjaev

Ishni himoyaga tavsiya etaman t.f.n. G`.Arifxodjaev _____
(imzo)

BMI Defektologiya kafedrasi yig`ilishining qarori bilan
(Qaror № ____, __.05.2013 y) himoyaga tavsiya etilgan.
Kafedra mudiri t.f.n: G`.Arifxodjaev _____
(imzo)

MUNDARIJA

KIRISH.....3-4

I. BOB. YORDAMCHI MAKTAB O'QUVCHILARINI O'QITISHDA TEXNOLOGIYALARNING NAZARIY ASOSLARI.

1.1. O'qitish texnologiyalarning mazmuni va mohiyati.....5-11

1.2. Yordamchi maktab o'quv predmetlarini o'qitishda pedagogik
texnologiyalarning nazariy va metodologik asoslari.....12-22

II. YORDAMCHI MAKTABDA O'QITISH TEXNOLOGIYALARNI O'QUV JARAYONIGA JORIY ETISH MASALALARI

2.1. Aqli zaif o'quvchilar intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish
bo'yicha barcha o'qitish texnologiyalarning asoslari.....23-28

2.2.Yordamchi maktab amaliyotida ta'limga yondoshuvlarning amaliy axamiyati.....	29-35
XULOSA	36-38
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI.....	39-40

Abdulla Qodiriy nomli Jizzax Davlat pedagogika instituti “Pedagogika-psixologiya” fakul’teti “Defektologiya” yo`nalishi IV-bosqich talabasi Aribjanova Gulzodaning “Yordamchi maktab o`quv predmetlarini modulli o`qitish texnologiyalarini yaratishning amaliy ahamiyati” nomli bitiruv malakaviy ishiga

T A Q R I Z

Pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayonining unumdorligini oshiradi, o'quvchilarni mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi, o'quvchilarda bilimga ishtiyoq va qiziqishni oshiradi, bilimlarni mustahkam o'zlashtirish, ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko'nikma va malakalarini shakllantiradi. Talaba Aribjanova Gulzodaning tadqiqot ishida ta'lim texnologiyalarini qo'llashga yo'naltirilgan pedagogik jarayonining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish, ta'lim jarayonida imkoniyati cheklangan bola qobiliyati va imkoniyatlarini nazarda tutish bu boradagi o'qituvchilarning ish tajribalarini o'rganish, maxsus pedagogika va turli metodik adabiyotlardan muammoning holatini o'rganish hamda maxsus maktablarda pedagogik texnologiyalarni qo'llash metodlarini aniqlash, dolzarbligini asoslash uchun yo'l ochib berishi mumkinligi ishning dolzarbligini asoslaydi. Ishlab chiqilgan maqsad vazifalar mavzuni o'rganishga qaratilgan. Tadqiqot ishi ikki bob, 4 ta paragraf, xulosa va tavsiyalardan iborat bo'lib, reja mavzuni to'liq ochib berishga qaratilgandir.

Tadqiqotning birinchi bobi “Yordamchi maktab o'quv predmetlarini o'qitish texnologiyalarining nazariy asoslari” deb nomlanib, bobda o'qitish texnologiyalarining mazmuni va mohiyati, nazariy va metodologik asoslari yoritilgan.

Tadqiqotning ikkinchi bobi “**Yordamchi maktabda o'qitish texnologiyalarni o'quv jarayoniga joriy etish masalalari**” deb nomlanib bu bobda aqli zaif o'quvchilarni intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish bo'yicha barcha o'qitish texnologiyalarning asoslari, yordamchi maktab amaliyotida ta'limga yondoshuvlarning amaliy ahamiyatlari haqida yoritib berilgan. Olib borilgan kuzatishlar asosida bitiruv malakaviy ishi xulosalangan va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Bitiruv malakaviy ish belgilangan talablarga javob beradi, ishni himoyaga tavsiya qilaman.

Taqrizchi:

dotsent R.Nurmatov

Defektologiya kafedrası

katta o'qituvchisi

Abdulla Qodiriy nomli Jizzax Davlat pedagogika instituti “Pedagogika-psixologiya” fakul'teti “Defektologiya” yo`nalishi IV-bosqich talabasi Aribjanova Gulzodaning “Yordamchi maktab o'quv predmetlarini modulli o'qitish texnologiyalarini yaratishning amaliy ahamiyati” nomli bitiruv malakaviy ishiga

T A Q R I Z

Maktab ta'limi ta'lim tizimining eng muhim sohasi bo'lib barkamol avlod asosan ana shu bo'g'inda shakllanadi. Shunga ko'ra maktab yoshidagi bolalarni har tomonlama barkamol etib tarbiyalashda ta'lim jarayonini olib borilish jarayoni, metod va usullari ta'limning eng muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. O'qitish texnologiyalari ta'lim-tarbiya jarayonini ilg'or vositalari, metodlar, texnik vositalar, usullariga tayanib takomillashtirish tizimi hisoblanadi. Ta'lim jarayoni nihoyatda murakkab jarayon bo'lganligi uchun ta'lim samaradorligi pedagoglar tomonidan takomillashtiriladi. Ana shunday dolzarb masala talaba Aribjanova Gulzodaning mavzuida aks etgan bo'lib, bitiruv malakaviy ishining kirish qismida, ishning maqsad, vazifalari belgilangan. Qo'yilgan maqsad asosida ishning nazariy qismida to'plangan ma'lumotlar asosida ta'lim sohasidagi o'qitish texnologiyalarining mazmuni va mohiyati yoritib berilgan. Tadqiqot ishi ikki bob, 4 ta paragraf, xulosa va tavsiyalardan iborat bo'lib, reja mavzuni to'liq ochib berishga qaratilgandir.

Birinchi bob nazariy qism hisoblanib, talaba ushbu bobda psixolog – pedagog va olimlarning tadqiqotlariga hamda to'plagan manbalarga asoslanib, bobda o'qitish texnologiyalarining mazmuni va mohiyati, nazariy va metodologik asoslari ochib berilgan.

Tadqiqotning ikkinchi bobi amaliy qism hisoblanib, bobda tadqiqotchi aqli zaif o'quvchilarni imtektual qobiliyatlarini rivojlantirish bo'yicha barcha o'qitish texnologiyalarning asoslari, yordamchi maktab amaliyotida ta'limga yondoshuvlarning turli to'llarini ishlab chiqqan va asoslab bergan.

Bitiruv malakaviy ishi xulosalangan va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Bitiruv malakaviy ish belgilangan talablarga javob beradi, ishni himoyaga tavsiya qilaman.

Taqrizchi:

N.Yusupov

JIZZAX VILOYATI XALQ TA'LIMI

BOSHQARMASIGA QARASHLI 32-SONLI

YORDAMCHI MAKTAB INTERNATI

DIREKTORI

KIRISH

Respublikamizda ro'y berayotgan tub o'zgarishlar psixologik bilimlardan mutaxassislar tayyorlashda umumli foydalanishni taqozo etmoqda. Davlat tomonidan ishlab chiqarilgan "Ta'lim to'g'risidagi qonun", "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" singari hujjatlarni amaliyotga tatbiq etish uchun bo'lg'usi mutaxassislarni davr talabiga binoan tayyorlash muammosini kun tartibiga kiritmoqda. Xuddi shu bois defektolg kadrlar tayyorlash sifatini oshirish uchun mutaxassislarni psixologiya o'qitish metodikasi bo'yicha bilimlar bilan qurollantirish ijtimoiy zarurat bo'lib hisoblanadi. Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, fanlarni o'qitish metodikasi murakkab o'quv predmetlari qatoriga kirib, keng ko'lamdagi ma'lumot umumlashmasini hamda sintetik aqliy faoliyat majmuasini o'zida mujassamlashtiradi. Xuddi shu sababdan ob'ekt-sub'ekt, sub'ekt-sub'ekt munosabatlarining psixologik mexanizmlarini atroflicha ochib berishni, shuningdek, ta'sirlanishning o'ziga xos xususiyatlarini yoritishni, aniq, ishonchli dalillar keltirishni muayyan darajaga ko'tarishi lozim.

Tadqiqotnng maqsadi: Pedagogik texnologiyalar va ularning maxsus ta'lim amaliyotida qo'llanilish yo'llarini rivojlantirish va ishlab chiqish.

Tadqiqot vazifalari:

- maxsus pedagogika va turli metodik adabiyotlardan muammoning holatini o`rganish hamda maxsus maktablarda pedagogik texnologiyalarni qo`llash metodlarini aniqlash, dolzarbligini asoslash;

- ta`lim texnologiyalarini qo`llashga yo`naltirilgan pedagogik jarayonining o`ziga xos xususiyatlarini o`rganish;

- ta`lim jarayonida imkoniyati cheklangan bola qobiliyati va imkoniyatlarini nazarda tutish bu boradagi o`qituvchilarning ish tajribalarini o`rganish.;

- maxsus maktablarda ta`lim texnologiyalarini qo`llashga yo`naltirilgan ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot usullari: Tadqiqotning maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda bajarilgan malakaviy bitiruv ishini yozish mobaynida:

adabiyotlarni o`rganish va tahlil etish, Maxsus maktabda darslarni kuzatish, tahlil qilish, o`qituvchi va o`quvchilar bilan suhbatlar uyushtirish, hujjatlarni o`rganish, tahlil etish kabi usullar ishlatildi.

Tadqiqot ob`ekti: Maxsus maktabning 5 - 6 sinflari (aqli zaif) o`quvchilari.

Tadqiqot predmeti: Pedagogik texnologiyalar va ularning maxsus ta`lim amaliyotida qo`llanilishi, maxsus maktab o`quvchilariga yangi pedagogik texnologiyalar asosida ta`limni tashkil etishning mazmuni, shakli va usullari.

Tadqiqotning nazariy va metodologik asosi;

Tadqiqotimizning nazariy va metodologik asosini O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Oliy Kengash, Oliy Majlis» qonunlari, xususan «Ta`lim to`g`risida»gi qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», Prezident farmonlari, Vazirlar Maxkamasining qarorlari va hujjatlari, Prezidentimiz Islom Karimov asarlari, ma`ruza va nutqlari, milliy istiqlol

g'oyasi mafkurasi bo'yicha hukumat hujjatlari tashkil etadi. Buyuk Sharq va G'arb ajdodlarimizning allomalari, mutafakkirlari va olimlarining o'quv, bilim faoliyati, ta'lim-tarbiya, maktabda darslarda o'quvchilar bilan olib boriladigan eng samarali ish uslub, yo'llari, usullari ham tadqiqotimizning metodologik asosini tashkil etdi.

«Pedagogik texnologiyalar va ularning maxsus ta'lim amaliyotida qo'llanilishi» mavzusidagi malakaviy bitiruv ishimiz Kirish qismi, ikki bob, beshta paragraf, xulosa, adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I. BOB. YORDAMCHI MAKTAB O'QUV PREDMETLARINI O'QITISH TEXNOLOGIYALARNING NAZARIY ASOSLARI.

1.1. O'qitish texnologiyalarning mazmuni va mohiyati.

Ta'lim jarayoni nihoyatda murakkab jarayon bo'lganligi uchun ta'lim samaradorligi pedagog va o'quvchi faolliligiga, ta'lim vositalarining mavjudligiga, ta'lim jarayonining tashkiliy, ilmiy, metodik mukammalligiga bog'liq.

Bugun ta'lim-tarbiya jarayoniga alohida maqsad qo'yilgan. Bu o'quvchilarga ijodiy jihatdan o'z-o'zlarini namayon qilishlari uchun imkoniyat yaratish va ularda ijobiy-shaxsiy sifatlarning shakllanishiga ko'maklashishdan iborat. Shu boisdan ham, bugungi kunda o'quvchilarning faolligini oshirish, bilimlarini yaxshilash maqsadida ta'lim samaradorligini oshiruvchi pedagogik texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Milliy ta'lim ravnaqini ta'lim tarbiya amaliyotida samarali va tejamli, yangi shakl, vositalarni qo'llash, izlanish orqali yuqori natijalarga erishishni ko'zlovchi pedagogik texnologiyalar ta'minlaydi.

Nima uchun bugungi kunda o'qitish texnologiyasining nazariy asosini yaratish va amaliyotga tatbiq etish zaruriyati tug'ildi? «O'qitish texnologiyasi» nimani anglatadi?

O'qitish texnologiyalari ta'lim-tarbiya jarayonini ilg'or vositalari, metodlar, texnik vositalar, usullariga tayanib takomillashtirish tizimi hisoblanadi. Bu tizim o'qituvchi tomonidan yaratiladi, ta'lim-tarbiya bosqichlarini o'zaro bog'lashga xizmat qiladi. Uning mazmuni va vazifalarini, maqsadini oldindan belgilash, ta'lim-tarbiyaning shakllari va vositalarini tayyorlash, o'quvchida shakllantirish ko'zda tutilgan ma'naviy sifatlarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan darslarni rejalashtirish kabilarni o'z ichiga oladi.

Ta'limning barcha bo'g'inlarini shunday tashkil etish kerakki, u yoshlarga chuqur va asosli bilim berish bilan birga keng qamrovli fikrlashga o'rgatsin. Pedagogik texnologiyaning asosiy mohiyati o'quvchilarni qiziqtirib o'qitish va bilimlarni to'liq o'zlashtirishga erishishdir. Ta'limda berilayotgan bilimlarni o'quvchilarning ko'pchilik qismi puxta o'zlashtirishi pedagogik texnologiya joriy etilishining asosiy maqsadi hisoblanadi.

O'qitish texnologiyalari ta'lim-tarbiya jarayonining mavjud qonuniyatlariga, mamlakatimiz rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlariga, tarixiy taraqqiyot tajribalariga asoslanadi. Pedagogik texnologiyani yaratish milliylik va muminsoniylik tamoyillariga, insonparvarlik va demokratiya prinsiplariga, ijodkorlik va tashabbuskorlikka tayanadi

Ta'lim-tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalarni qo'llash avvalo, pedagogik munosabatlarni rivojlantirish va demokratlashtirishni talab etadi, chunki ularni amalga oshirmay turib qo'llangan har qanday pedagogik texnologiya kutilgan samarani bermaydi.

Pedagogik munosabatlarni rivojlantirish va demokratlashtirish asosidagi pedagogik texnologiya avtoritar texnologiyaga qarama-qarshi

bo'lib, pedagogik jarayonda hamkorlik, g'amxo'rlik, ta'lim oluvchilar shaxsini hurmat qilish va e'zozlash orqali shaxsning tahsil olishi, ijod bilan shug'ullanishi va o'zini o'zi rivojlantirishiga qulay ijtimoiy va psixologik muhit yaratadi. Mazkur jarayonda talaba o'z o'quv faoliyatining subyekti sanaladi va pedagog bilan hamkorlikda yagona ta'lim jarayonining subyekti - ta'lim-tarbiya vazifalarini hal etadi.

Pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayonining unumdorligini oshiradi, o'quvchilarni mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi, o'quvchilarda bilimga ishtiyoq va qiziqishni oshiradi, bilimlarni mustahkam o'zlashtirish, ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko'nikma va malakalarini shakllantiradi.

An'anaviy o'qitish tizimi, aytish mumkinki, yozma va o'g'zaki so'zlarga tayanib ish ko'rishi tufayli "axborotli o'qitish" sifatida tafsiflanadi, chunki o'qituvchi faoliyati birgina o'quv jarayonining tashkilotchisi sifatida emas, balki nufuzli bilimlar manbaiga aylanib borayotganligini ta'kidlagan holda baxolanmoqda.

Birinchidan, pedagogik texnologiya ta'lim (tarbiya) jarayoni uchun loyihalalanadi. Binobarin har bir jamiyat shaxsni shakllantirish maqsadini aniqlab beradi va shunga mos holda ma'lum pedagogik tizim mavjud bo'ladi. Bu tizimga uzluksiz ravishda ijtimoiy buyurtma o'z ta'sirini o'tkazadi va ta'lim-tarbiya mazmunini umumiy holda belgilab beradi. «Maqsad» esa pedagogik tizimning qolgan elementlarini o'z navbatida yangilash zarurligini keltirib chiqaradi.

Avvalo texnologiyani uzi degan savolga javob beraylik. "**Texnologiya**" tushunchasi texnikaviy taraqqiyot bilan bog'liq holda fanga 1872-yilda kirib keldi va yunoncha ikki so'zdan texnos- san`at, hunar va logos-fan, ta'limot so'zlaridan tashkil topib, "hunar fani" ma'nosini anglatadi. Biroq bu ifoda texnologik jarayonni to'liq tavsiflab berolmaydi,

texnologik jarayon har doim zaruriy vositalar va sharoitlardan foydalangan holda amallarni (operatsiyalarni) muayyan ketma-ketlikda bajarishni ko'zda tutadi. Yanada aniqroq aytadigan bo'lsak, texnologik jarayon, bu – mehnat qurollari bilan mehnat ob'ektlari (xom ashyo) ga bosqichma- bosqich ta'sir etish natijasida mahsulot yaratish borasidagi ishchi (ishchi-mashina) ning faoliyatidir. «Pedagogik texnologiya» so'z birikmasi asosida «texnologiya», «texnologik jarayon» tushunchalari yotadi. Ushbu tushunchalar orqali sanoatda tayyor mahsulotni olish uchun bajariladigan ishlarning ketma-ketligi haqidagi texnik hujjat, ta'limda esa fan bo'yicha uslubiy tadbirlar majmuasi tushuniladi.

Pedagogik texnologiyani tushunishning asosiy yo'li aniq belgilangan maqsadlarga qaratish, ta'lim oluvchi bilan muntazam o'zaro aloqani o'rnatish, pedagogik texnologiyaning falsafiy asosi hisoblangan ta'lim oluvchining xatti-harakati orqali o'qitishdir. O'zaro aloqa pedagogik texnologiya asosini tashkil qilib, o'quv jarayonini to'liq qamrab olishi kerak.

Texnologiya deganda sub'ekt tomonidan kiritilgan ta'sir natijasida sub'ektda sifat o'zgarishiga olib keluvchi jarayon tushuniladi. Texnologiya xar doim zaruriyat vositalar va sharoitlardan foydalanib, ob'ektga yo'naltirilgan maqsadni amallarni muayyan ketma-ketlikda bajarishni ko'zda tutadi.

Texnologiya – zamonaviy ilmiy-amaliy tafakkur mahsuli degan xulosaga kelish mumkin. U faoliyatni tubdan takomillashtirishga, uning natijaviyligini, tezkorligini, texnikaviy qurollanganligini oshirishga oid amaliy tadqiqotlar yo'nalishini aks ettiradi.

Shunday qilib, “texnologiya” deganda insonning aniq, murakkab jarayonni ketma-ketli o'zaro bogliq mualaja va amallar tizimiga taqsimlash yo'li bilan kafolatli natijaga erishish maqsadida amalga oshiriladigan usullar tushuniladi.

Texnologiya (jarayon sifatida) uchta qoida bilan tavsiflanadi:


- jarayonni o'zaro bog'liq bosqichlarga taqsimlash;
- izlanayotgan natijaga (belgilangan maqsad) erishishga qaratilgan harakatlarni izchil va bosqichma-bosqich bajarish;
- qo'yilgan maqsadga mos natijaga erishishning zaruriy sharti hisoblangan texnologik muamlo va amallarni bajarishning alohida ahamiyat kasb etishi.

Ta'lim tizimiga yangiliklarni olib kirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan umumli foydalanish bugungi kun ta'limi oldiga qo'yilgan muhim vazifalardandir.

Darhaqiqat, zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayonining unumdorligini oshiradi, o'quvchilarning mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi, o'quvchilarda bilimga ishtiyoq va qiziqishni oshiradi, bilimlarni mustahkam o'zlashtirish, ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko'nikma va malakalarini shakllantiradi.

O'qitish texnologiyalari mohiyat jihatdan boshqa texnologiyalar bir safda turadi, chunki ular kabi boshqalari ham o'z xususiy sohasiga, metodlari va vositalariga ega, ma'lum "material" bilan ish ko'radi. Biroq Pedagogik Texnologiyalar inson ongi bilan bog'liq bilimlar soxasi sifatida murakkab va hammaga ham tushunarli bo'lmagan pedagogik jarayonni ifoda etishi bilan ishlab chiqarish, biologik xatto axborotli texnologiyalardan ajralib turadi. Uning o'ziga xos tomonlari –tarbiya komponentlarini mujassamlashtirganliklaridir. Pedagogik texnologiya boshqa sohalardagi texnologik jarayonlar bilan uzluksiz va an'anaviy o'quv jarayoniga, uning samarasini, oshirishga ta'sir ko'rsatishning yangi imkoniyatlarini egallab oladi.

O'qitish texnologiyaning tuzilmasini quyidagi ko'rinishda tasvirlash mumkin:



Ushbu texnologiya o'zining yosh avlodni hayotga tayyorlash jarayonida davomida qo'llagan usul va vositalari, tadbir shakllari, o'ziga xos urf-odatlar va an'analari, ta'lim-tarbiya haqidagi g'oyalari va hayotiy tajribasi mavjud. Bu meros o'tmishda ko'plab alloma-yu donishmandlar etishib chiqishiga asos bo'lgan. Hozirgi kunda bu merosdan ijodiy foydalanish katta ahamiyatga ega.

O'qitish texnologiyalari o'z mohiyatiga ko'ra sub'ektiv xususiyatga ega, ya'ni, har bir pedagog ta'lim va tarbiya jarayonini o'z imkoniyati, kasbiy mahoratidan kelib chiqqan holda ijodiy tashkil etishi lozim. Qanday shakl, metod va vositalar yordamida tashkil etilishidan qat'iy nazar pedagogik texnologiyalar:

- pedagogik faoliyat (ta'lim-tarbiya jarayonining) samaradorligini oshirishi;
- o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida o'zaro hamkorlikni qaror toptirishi;
- o'quvchilar tomonidan o'quv predmetlari bo'yicha puxta bilimlarning egallanishini ta'minlashi;
- o'quvchilarda mustaqil, erkin va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishi;

- o'quvchilarning o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqara olishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishi;

O'qituvchining faoliyati mezonlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- maqsadning aniqligi va uni tashxis etish mumkinligi;

- o'rganilayotgan mavzuga oid nazariy va amaliy masalalar va uni yechish usulining tizimli tarzda taqdim etilishi;

- mavzularning kema-ketligi, mantiqiyliqi, bosqichma-bosqich bayon etilishi;

- o'quv jarayonining har bir bosqichida ishtirokchilarning o'zaro harakat usullarining ko'rsatilishi;

- o'qituvchining eng samarali o'qitish vositalaridan foydalanishi;

O'qitish texnologiyalari ta'lim-tarbiya jarayonlari, ta'lim usuli, vositalari, shakllari, o'qituvchi va tahsil oluvchi o'rtasidagi munosabatlar majmui bo'lib, ta'lim jarayoniga tizimli, texnologik yondashuvni talab qiladi va o'zida ta'lim maqsadlarini oydinlashtirishni, natijasini kafolatlashni va ob'ektiv baholashni amalga oshiradi..

1.2. Yordamchi maktab o'quv predmetlarini o'qitishda pedagogik texnologiyalarning nazariy va metodologik asoslari.

Jamiyatimiz jadallik bilan taraqqiy etib, iqtisodiy va siyosiy mavqeyi kundan-kunga ortib bomoqda. Buni esa ijtimoiy soha va ayniqsa ta'lim-tarbiyaga asoslanganlikda deyish mumkin. Ta'lim tarbiya sohasida aniq maqsad va vazifalar, uni amalga oshirish dasturlari ishlab chiqilganligi, pedagogikaning bosh maqsadi ham yetuk, yuksak malakali, ma'naviyatli, ma'rifatli yosh avlodni tarbiyalash ekanligidandir. O'zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirishning ikkinchi bosqichida «o'quv-tarbiyaviy jarayonni ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan ta'minlashning muhimligi» alohida qayd qilingan. Shuning uchun ham mamlakatimizning ta'lim muassasalarida pedagogik texnologiyaga qiziqish ortib unga turlicha qarashlar, va bu tushunchani o'ziga xos talqin qilishlar, shuningdek, pedagogik texnologiyani o'quv jarayoniga joriy etishga ham turlicha yondashuvlar sodir bo'lmoqda.. Zero, o'qitishga texnologik yondashuvning o'zbek xalq pedagogikasi g'oyalari bilan uyg'unlashtirib o'quv jarayoniga tadbiiq etish, kadrlar tayyorlash sifatini jahon ta'lim standartlariga muvofiqlashtirishda alohida o'rin tutishi muqarrardir.

Milliy mustaqillik qo'lga kiritilishi bilan istiqbol yo'li belgilab olindi. Ta'lim-tarbiya sohasida aniq maqsad va vazifalar, uni amalga oshirish dasturlari ishlab chiqildi. Davlatimiz rahbari I. Karimov barkamol avlodni voyaga etkazish borasidagi bir qator nutqlari va asarlarida bu davlat siyosatida ustivor masala ekanligini bir necha bor ta'kidlab o'tdi. Bobokalonlarimizning azaliy orzulari, milliy va umumbashariy qadriyatlar, ma'naviy qadriyatlarlar zamonaviy pedagogikaning maqsadi va vazifalarini shakllanishiga asos bo'lmoqda. Davlatimiz tomonidan qabul qilingan «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»da ushbu maqsad ko'rsatilgan.

Zero, zamonaviy pedagogikaning bosh maqsadi ham etuk, yuksak malakali, ma'naviyatli, mirrifatli, mustaqil fikr yurita oluvchi, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashdan iboratdir.

Ko'zlangan maqsadga erishish uchun Yordamchi maktab ta'limi tizimini tubdan isloh qilinmoqda. Ta'lim jarayoniga tabaqalashtirilgan yondashuv, o'quvchilarni turli kasb-hunar kollejlari, akademik letseylarda tahsil olishlarini ta'minlash zamonaviy pedagogika fani oldiga yuksak vazifalarni qo'ymoqda. Masalan, ushbu o'quv muassasalari uchun davlat ta'lim standartiga muvofiq keluvchi o'quv dasturlari va darsliklar, o'quv qo'llanmalarini yaratish bugungi kun talablariga javob bermog'i lozim.

Aqli zaif o'quvchilarga oid adabiyotlar shuni ko'rsatadiki, hozirgi davrda o'qitish texnologiya tushunchasi ta'lim amaliyoti v nazariyasi ilmidan mustahkam o'rin egalladi, lekin uni pedagogikaning mukammal lug'atlaridagi o'rni hali no'malumligicha qolib ketmoqda.

Pedagogik texnologiya tushunchsinining shakllanishi va rivojlanishi tarixida turli qarashlar mavjud bo'lgan: u texnik vositalar haqidagi ta'limot deb, hamda o'qitish jarayonini loyihalashtirilgan holda izchil va muntazam tashkil etish deb talqin etilgan.

O'qitish texnologiyalari ushbu tushunchani yordamchi maktab o'quv jarayoniga ko'chiradigan bo'lsak, o'qituvchining o'qitish vositalari yordamida o'quvchilarga muayyan sharoitlarga ko'rsatgan tizimli ta'siri natijasida ularda jamiyat uchun zarur bo'lgan va oldindan belgilangan ijtimoiy hodisa, deb ta'riflash mumkin. Ta'riflar nazariyasi bo'yicha bunday ijtimoiy hodisani o'qitish texnologiyasi desa bo'ladi.

Ta'limni texnologiyalashtirishning asosini, ta'lim jarayonini, uning samaradorligini oshirish va ta'lim oluvchilarni, berilgan sharoitlarda va belgilangan vaqt ichida loyihalashtirilayotgan o'quv natijalariga erishishlarini kafolatlash maqsadida to'liq boshqarish g'oyasi tashkil etadi.

Yordamchi maktabda zamonaviy ta'limni tashkil etishga qo'yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni o'quvchilarga etkazib berish, ularda ma'lum faoliyat yuzasidan ko'nikma va malakalarni hosil qilish, shuningdek, o'quvchilar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko'nikma hamda malakalar darajasini baholash o'qituvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda ta'lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi.

Maxsus muassasalarda bugungi kunda o'qitish texnologiyalarni ilmiy nazariy asosini yaratish va amaliyotga tadbiiq etish zaruriyati tug'ildi.

An'anaviy o'qitish tizimi yozma va og'zaki so'zlarga tayanib ish ko'rishi tufayli "Axborotli o'qitish" sifatida tavsiflanib, o'qituvchi faoliyati birgina o'quv jarayonining tashkilotchisi sifatida emas, balki nufuzli bilimlar manbaiga aylanib qolganligi:

Ta'lim-tarbiya jarayoniga pedagogik texnologiyani tadbiiq etish yuqorida qayd etilgan dolzarb muammoni ijobiy hal etishga xizmat qiladi.

"O'qitish texnologiyalari"ning metodologik asoslari.

Insonning boshqa mavjudotlardan farqi oldiga ma'lum bir maqsad qo'yib, so'ng unga tomon harakat qilishidadir. Kishi maqsad sari qiladigan harakati (faoliyati) jarayonida muayyan tabiiy va sun'iy to'siqlarni yengib o'tadi. Bu to'siqlarni yengib o'tish uchun u bir qator tadbiiq va choralardan foydalanadi.

Maqsadga yetishda muayyan to'siqni yengib o'tish uchun qo'llaniladigan tadbiiq va choralar majmuini usul deyiladi.

Maqsadga etishda bir necha goho o'nlab – yuzlab to'siqlarni yengishga to'g'ri keladi. Bu to'siqlarni engish uchun tegishli usullar tegishli ma'lum bir tizimda qo'llaniladi.

Maqsadga etishda qo'llaniladigan usullar tizimini uslub (yo'l) deyiladi.

Usullarni ma'lum bir uslubda qo'llanish jarayonida har bir harakat maqomi muayyan maqsad ko'rsatkichlariga bo'ysundiriladi. Undan tashqari, kishi maqsadga etish jarayonida bir qator qonuniyatlarga ham tamoyil sifatida amal qiladi.

Kishi maqsad sari qilgan harakatida uning uchun tamoyil vazifasini bajaruvchi maqsad ko'rsatkichlari bilan harakati davomida amal qilinishi shart bo'lgan qonuniyatlar majmuiga metodologiya deyiladi.

Har bir shaxsni, ijtimoiy guruhni va butun jamiyatni eng umumiy, umumiy va xususiy maqsadlari bo'ladi, inchunun ularning eng umumiy, umumiy va xususiy metodologik asoslari mavjud.

Jamiyat oldiga qo'ygan umumiy maqsad ko'rsatkichlari falsafaning umumiy qonuniyatlari hamma uchun eng umumiy metodologik asosdir.

Har bir sohada mavjud maqsad ko'rsatkichlari bilan faqat shu sohada hukm suruvchi qonuniyatlar shu sohada faoliyat ko'rsatuvchilar uchun umumiy metodologik asos hisoblanadi.

Muayyan faoliyatning eng umumiy, umumiy maqsad ko'rsatkichlari va qonuniyatlari bilan birga shu faoliyatning ichida qisqa muddatli maqsad ko'rsatkichlari va tarmoq qonuniyatlari ham bo'ladi. Ularga amal qilish xususiy metodologiya deyiladi.

Usul, uslub va metodologiya tushunchalariga umumfalsafiy ta'rif berib chiqqanimizdan so'ng ularning o'quv jarayonida ishlatilishini ko'rib chiqamiz.

Insonning boshqa mavjudotlardan farqi-uning o'z oldiga maqsad qo'yib, maqsad sari harakat qilishidir, deb ta'kidladik.

Tabiiy savol tug'iladiki, bu maqsadlar qayoqdan paydo bo'ladi? Javob: har qanday maqsad alohida bir shaxs, ijtimoiy guruh yoki millatning ehtiyojidan kelib chiqadi.

Ijtimoiy ehtiyojga kishining ijtimoiy taraqqiyoti natijasida vujudga keladigan fikr yuritish, fikr almashish, bilim olish, mehnat qilish, zavqlanish sevish va sevilish kabi ehtiyojlar kiradi.

Pedagogik jarayonning umumiy metodologiyasi soha oldiga qo'ygan maqsad ko'rsatkichlari bilan didaktikaning umumiy tamoyillaridir.

Pedagogika sohasining umumiy maqsadi jamiyatning eng umumiy maqsadi, yani g'oyasidan kelib chiqib, ajralmas qismi hisoblanadi.

Maorif sohasining umumiy maqsadi huquqiy demokratik davlat hamda odil fuqarolik jamiyati talablariga javob beruvchi kishini tarbiyalab berishdan iboratdir.

O'zbekistonda mualliflar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, erkin, ma'rifatli va demokratik davlat fuqarolari quyidagi ijtimoiy sifatlarga ega bo'lishlari kerak: aqlli, mustaqil fikr yurita oladigan; odobli, millatimiz to'plagan barcha fazilatlarga ega; mehnatsevar, mehnat kishini ijtimoiy ehtiyojlariga aylanganligi; bilimli, diniy, dunyoviy va fazoviy bilimlarni ko'p va chuqur egallab olib, ularni hayotga qo'llay olishi;

Jismoniy-sog'lom, ruhiy va ijtimoiy salomat; milliy g'ururga ega-ajdodlarimizning moddiy va ma'naviy meroslarini egallab, ular bilan faxrlanuvchi va ularni boyitishga hissa qo'shuvchi; vatanparvar, vatan uchun xalq uchun fidokorona mehnat qiluvchi, ularni muxofaza qila oluvchi va zarur bo'lsa ular uchun jonini qurbon qiluvchi; baynalminal, o'z millati qatorida boshqa millatlarni hurmat qiluvchi; insonparvar inson zotiga faqat yaxshiliklar yo'llovchi va ular uchun ezgu ishlar qiluvchi; jasur va shijoatli - har bir ishiga mardona kirishib, uni shijoat bilan oxiriga yetkazuvchi.

Bu ijtimoiy sifat jamiyat ehtiyojidan kelib chiqqan davlat buyurtmasi bo'lib, ta'lim sohasida faoliyat ko'rsatayotgan har bir inson ulardan umumiy metodologik asos sifatida foydalanishi kerak. Bu umumsohaviy metodologiyaning birinchi qismi hisoblanadi.

Umumiy metodologiyaning ikkinchi qismini o'qituvchi (pedagog) larga yaxshi tanish bo'lgan didaktika tamoyillari tashkil qiladi.

Ularga: ta'lim-tarbiya jaryonida ta'lim oluvchi diqqatini berilayotgan bilimga qaratib, uni jarayon oxirigacha saqlab turish; har bir bilimni ilmiy asoslab berish; bilim berishda o'quvchi (talaba) ning imkoniyati va yosh xususiyatlaridan kelib chiqish; bilim berishda mumkin qadar ko'proq ko'rgazmali vositalardan foydalanish; bilim berishda muntazamlilik va davomiyligni saqlash; o'quv jarayonini mehnat jarayoni bilan qo'shib olib borish; ta'lim va tarbiyaning tizimli, izchil bo'lishi va uning birligi tamoyillari kiradi.

Pedagogik texnologiya quyidagi talablarga javob berishi lozim:

- o'quv-tarbiyaviy jarayonda o'quv-texnik vositalari ob'ekt va usullaridan maqsadli foydalanishi;

- pedagogik jarayonda muloqot tizimini to'g'ri tashkil etish va pedagogik ma'lumotlarni taqdim etish;

- o'quvchilarning bilim olish jarayonini boshqarish tizimi (o'zlashtirish faoliyatidagi boshqaruv tizimi);

- belgilangan masalani echish maqsadida pedagogik jarayon uslub va vositalarini shakllantirish;

- o'qish va tarbiya jarayonini rejalashtirish;

- bir-biriga bog'liq g'oyalar tizimi, insonlar faoliyatini tashkil etish vositalari, ta'lim maqsadiga erishish resurslarni ichiga olgan yaxlit integrativ jarayon;

- pedagogik tizimni texnologik loyihalash.

Ta'lim jarayonini amalga oshirish va baholashni rejalashtirishda quyidagi mezonlarga tayaniladi:

1.Konseptuallik: har bir pedagogik texnologiya o'z tarkibida falsafiy, psixologik, didaktik, ijtimoiy pedagogik asosni qamrab olgan aniq ilmiy konsepsiyaga tayanishi lozim.

2.Tizimlilik: Pedagogik texnologiya hamma o'zaro bog'liq qismlardan iborat tizimning mantiqiy jarayoni belgilariga ega bo'lishi va yaxlit bo'lishi lozim. Pedagogik texnologiya o'quvchilarning rivojlanishi, ijodiy shug'ullanishining metod, vositalarini, tafakkur rivojini o'rganadi, qiyinchiliklarni engishga o'rgatadi.

O'quvchilarda o'quv materialini tushunishiga, muammoli izlanishning yangi shakllarini egallashlariga imkon beradi. Bilish izlanish jarayonini boshqarishni ta'minlaydi.

Jarayonning mazmun-mohiyati uning qismlarining uzviy bog'liqligi, yaxlitligidan iborat.

3.Samaradorlik.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar raqobatli shartlar asosida mavjud bo'lib, natijalar bo'yicha samara berishi, optimal harakatli bo'lishi va ta'limning ma'lum bir standartlarini kafolatlashi shart.

4.Qo'llanuvchanlik.

Pedagogik texnologiya bir xil ta'lim muassasalarida boshqa subektlar tomonidan ham qo'llanilish imkoniyatini beradi.

O'qitish texnologiyalarining ilmiy asoslari.

Har qanday umumpedagogik ta'lim texnologiyasi falsafiy asosga ega.

Biroq o'qitish metodi va vositalarida falsafiy asosni topish qiyin. Qo'ida g'oya nuqtai nazaridan bir-biriga zid bo'lgan texnologiyalarda ham bir xil metodlar qo'llanilishi mumkin. Shuning uchun ham texnologiyaning o'zi o'zgaruvchan bo'lib, u yoki boshqa falsafiy asosga moslashishi mumkin.

O'qitish texnologiyalarini tushunish uchun asosiy yo'li aniq belgilangan maqsadlarga qaratilganlik, ta'lim oluvchi bilan muntazam o'zaro aloqani o'rnatish, pedagogik texnologiyaning falsafiy asosi hisoblangan ta'lim oluvchining xatti-harakati orqali o'qitishdir. O'zaro aloqa pedagogik texnologiya asosini tashkil qilib, o'quv jarayonini to'liq qamrab olishi kerak. Shu fikrni batafsil ko'rib chiqaylik.

Pedagog odatda o'z oldiga o'quvchilar uchun materialining mazmunini tushunib, o'zlashtirib olishsin, ma'lum bilimlarni egallab amaliyotda qo'llashga o'rgansin degan maqsadni qo'yadi. Lekin o'zlashtirish, tushunish, qo'llash nimani anglatadig'

Pedagog o'z oldiga qo'ygan maqsadga erishganligini qanday biladi?

Pedagogik maqsadlarga erishganlik yoki erishmaganlikni bilishning aniq vositalari bo'lgandagina, pedagog o'zining mehnati samarali ekanligiga va tanlagan uslublari maqsadga muvofiqligiga yoki, aksincha, samarasiz ekanligiga ishonch hosil qilishi mumkin. Odatdagi o'qitish uslubini tadqiq qilishda pedagogik texnologiya tarafdorlari aynan shu narsani nazarda tutishgan edi.

O'qitish texnologiyalarining asosiy tushunchasi, o'quv jarayoniga majmui sifatida yondoshishdir. Bunda ta'lim tarbiyada ishtirok etuvchi barcha narsa va hodisalar o'zaro funksional bog'liqlikda, bir butunlikni, yangi pedagogik jarayon majmuni tashkil qiladi. Pedagogik jarayon majmuini muayyan bir vaqt mobaynida bosqichma-bosqich amalga oshirish pedagogik texnologiya deyiladi. O'qitish texnologiyalarining an'anaviy uslublardan asosiy farqi uning to'la-to'kis majmular nazariyasi qonuniyatlaridan kelib chiqqanligidandir.

Pedagogikaning avvalgi uslublaridan afzalligi, uning ta'lim jarayonini bir butunlikdan ko'rib, ta'lim maqsadi, uning mazmuni, bilim berish usullari va vositalari hamda ta'lim oluvchi va ta'lim beruvchilarni majmuga keltirib ta'lim bosqichlarini loyig'alab ta'lim jaraenini nazorat qilish va ta'lim natijalarini bag'olash kabi qismlarini o'zaro uzviy bog'lab majmuga keltirib turib, uning loyig'asini tuzishdadir.

Uning an'anaviy uslublaridan yana bir farqi, u o'quvchilarning o'zlaricha berilgan bilimni yodlab olib aytib berishga emas, balki ta'lim va tarbiya jarayonining yakunida amaliy ishlarni bajarishiga yo'naltirilganligidadir va uning yordamida o'quv jarayoni tashkil etilganda dars natijasi bilim beruvchining pedagogik mahoratiga bog'liq emasligidadir. Ilmiy asoslanib, yaxshi loyihalashtirilgan pedagogik texnologiya bo'yicha har qanday o'qituvchi ham a'lo bo'lmasada yaxshi dars o'tadi. Chunki pedagogik texnologiyani pedagogik olim, metodist yoki ilg'or tajribali o'qituvchilar tuzadi, shu bois ularning pedagogik mahorati pedagogik jarayon loyihasida o'z ifodasini topgan bo'ladi. Avvalgidek, «darsdan ko'zlangan maqsadga ob'ektiv sabablarga binoan etib bo'lmaydi» yoki «kutilmagan omillarga binoan dars buziladi» va shunga o'xshash gaplarga pedagogik texnologiyadan o'rin yo'q.

O'qitish texnologiyalarining yuqorida qayd etilgan xususiyatlardan va majmular nazariyasining qonuniyatlaridan kelib chiqib, unga quyidagi kengaytirilgan ta'rifni beramiz. Pedagogik texnologiya, bu – jamiyat eg'tiejidan kelib chiqib, oldindan belgilangan kishi ijtimoiy sifatlarini samarali shakllantiruvchi va aniq maqsadga yo'naltirilgan o'quv jaraenini majmui sifatida ko'rib, uni tashkil qiluvchi qismlari bo'lgan o'qituvchi (pedagog)ning o'qitish vositalari erdamida o'quvchi talabalarga ma'lum bir sharoitda muayyan ketma-ketlikdan ko'rsatgan ta'sirini nazarda tutuvchi va ta'lim natijasini bag'olab beruvchi texnologiyalashgan ta'limiy tadbirdir.

O'qitish texnologiyalarining ta'lim sohasidagi mexanizmlari quyidagilardir:

- ta'lim muassasalarida ijodiy muhit yaratish, ilmiy pedagogik xodimlar orasida tashabbuskorlik va yangilikka bo'lgan qiziqishni oshirish;

- ta'lim sohasidagi ijodkorlikni, yangiliklarni qabul qilish va keng yoyish uchun ijtimoiy va iqtisodiy sharoitlarni yaratish;

- izlanuvchanlik faoliyatini rag'batlantirish, uni har tomonlama qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini ishga solish;

- nisbatan istiqbolli yangiliklarni, samarali loyihalarni amalda harakatdagi ta'lim tizimiga joriy etish, to'plangan yangilik va tajribalarni doimiy harakatdagi umumta'lim tizimi rejimiga singdirish.

Shu bois mamlakatimizda ta'lim tizimini takomillashtirish va uni hozirgi zamon talablariga moslashtirish, zamonaviy informatsion texnologiyalarga asoslangan jahon andozalari darajasidagi tizimini yaratish umumdavlat siyosatining muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanmoqda. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da uzluksiz ta'lim tizimini isloh etish asosida, jamiyatning rivojlanishi talablarini hisobga olgan holda, etuk mutaxassislarni tayyorlash, ularning malakasini oshirish va qayta tayyorlash masalalariga katta e'tibor berilgan. Bu vazifalarni hal qilish uchun esa birinchi navbatda, o'quv jarayonini tubdan isloh qilish, unga jahonning rivojlangan davlatlarida keng qo'llanilayotgan zamonaviy pedagogik texnologiyalarni izchillik bilan tatbiq etish zarur.

Jamiyatnin har bir faol fuqarosi XXI asr bo'sag'asida turar ekan, o'tgan yillarni baholashga va kelajak hayotining turli qirralarini belgilab olishga urinishlari tabiiydir. Ta'lim sohasida ham bunday ishlar amalga oshirilmoqda. Ilmiy-texnikaviy taraqqiyot nafaqat ishlab chiqarishning ko'p sonli tarmoqlariga, balki madaniy sohasiga, ijtimoiy-gumanitar bilimlar doirasiga ham yangi texnologiyalarni joriy etishni taqazo etmoqda.

Shu boisdan bugugi kunning dolzarb masalalardan biri pedagogik texnologiya hisoblanadi.

Ta'lim-insonlar faolligini belgilaydigan muhum bir tarmoqqa aylanmoqda. Ta'lim tizimida inson faoliyati bilan bog'liq ko'pgina muammolarni hal etish zarur. Shuning uchun aqli zaif bolalar bu vazifalarni ilmiy-texnik jarayonning o'zgarishi bilan bog'liq holda ta'lim nazariyasini yaratish, ya'ni fanni jamiyatning faol, samarali ishlab chiqarish kuchiga aylantirish orqali amalga oshirish mumkin.

Bunday pedagogik texnologiyalarning ta'limdagi amaliylik hamda tashkiliy-uslubiy imkoniyatlarini amalga oshirishga yunaltirilganligi, uning aniq vositalar yordamida hayotga tadbiiq etilishi butun jahon pedagoglarining unga e'tiborini kuchaytirmoqda. Bu yunalishga turlicha qarashlar mavjud, ba'zi pedagoglar pedagogik texnologiyada ta'limni tabaqalashtirish vositasini ko'rmoqdalar, boshqalarini kam mehnat sarflab yo'qori natijalarga erishish imkoniyatlari, pedagogik texnologiyada barcha ta'lim oluvchilarni oldindan belgilangan bilim, ko'nikma va malakalar darajasiga yetkazish mumkinligi qiziqirmoqda.

II. YORDAMCHI MAKTABDA O'QITISH TEXNOLOGIYALARNI O'QUV JARAYONIGA JORIY ETISH MASALALARI

2.1. Aqli zaif o'quvchilar intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish bo'yicha barcha o'qitish texnologiyalarning asoslari

Prezidentimiz I.A.Karimov alohida ta'kidlaganlaridek. «Biz mamlakatimizning istiqboli yosh avlodimiz qanday tarbiya topishiga, qanday manaviy fazilatlar egasi bo'lib voyaga yetishiga, farzandlarimizning hayotda nechog'li faol munosahatda bo'lishiga, qanday oliy maqsadlarga xizmat qilishiga bog'liq) ekanini hamisha yodda tutishimiz kerak». Shu sababli ham birinchi navbatda ta'lim mazmuni va uning tarkibini kengaytirish va chuqurlashtirish, xususan, bu mazmunga nafaqat bilim, ko'nikma va malaka.

Ta'lim mazmuni, uning komponentlari, tarkibi, vazifalari haqida so'z ketganda dalillar bilan qonuniyatlar, yaqqollik bilan mavhumlik, bilimlar bilan haqiqatni mustaqil bilish metodlari o'rtasidagi maqbul keladigan munosabatlari aniqlash zarur.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ta'kidlanganidek. «Zamonaviy iqtisodiyot, fan, texnika va texnologiyalari rivojlantirish asosida kadrlar tayyorlashning takomillashgan tizimini yaratish mamlakatni taraqqiy ettirishning eng muhim shani hisoblanadi. Tizimning amal qilishi kadrlarning istiqbolga mo'ljallangan vazifalarini hisobga olish va hal etish qobiliyatiga yuksak umumiy va kasbiy madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, ijtimoiy siyosiy hayotda mustaqil ravishda yo'nalish olish mahoratiga ega bo'lgan yangi avlodni shakllantirishni ta'minlaydi».

Kadrlar tayyorlash sohasida hozirga qadar amalga oshirilayotgan o'zgarishlar faqat mavjud ta'lim tizimini isloh qilishga qaratilgan edi.

Shaxs. jamiyat va davlatning ehtiyojlari bilan kasbiy tayyorgarlikning amaldagi tizimi o'rtasidagi tafovutlarni bartaraf ettishni ta'minlaras edi. Xalqaro tajribani. mavjud kadrlar tayyorlash tizimining ahvoli va muammolarini tahlil qilish asosida uning prinsip jihatidan yangi modeli ishlab chiqildi.

Kadrlar tayyorlash tizimi yangi modelining mohiyati va o'ziga xos xususiyati unga asosiy tarkibiy qismlari sifatida quyidagi komponentlar kiritilganligidadir.

-shaxs - kadrlar tayyorlash tizimining bosh subekti. ta'limga oid xizmatlaring iste'molchisi va ularing yaratuvchisi;

-uzluksiz ta'lim - kadrlar tayyorlashning poydevori asosi;

-fan - yuqori malakali mutaxassislari tayyorlovchi va ularing iste'molchisi;

-ishlab chiqarish - kadrlarga bo'lgan ehtiyojning istiqbolini belgilashni. ularing tayyorgarlik darajasi sifatini baholashni. shuningdek. kadrlar tayyorlash tizimini qisman moliyaviy va moddiy-texnikaviy ta'minlashni amalga oshiruvchi asosiy buyurtmachi;

-davlat va jamiyat - kadrlaring tayyorgarligi sifatini nazorat qilish va baholashni amalga oshiruvchi. kadrlari tayyorlash va ulari qabul qilib olishning bosh kafillari.

«Kadrlar tayyorlash milliy dastur umumiy madaniyatni shakllantirish. jamiyatdagi hayotga moslashtirish. kasb-korga va ta'limga oid dasturlari ongli ravishda tanlash harnda keyinchalik ro'yobga chiqarish uchun ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy. tashkiliy. psixologik-o'qitishva boshqa shan-sharoitlari yaratishni. oila va jamiyat. davlat oldidagi o'z mas'uliyatini anglovchi barkamol insonni tarbiyalashni nazarda tutadi.

1. Ta'lim, fan va ishlab chiqarishning o'zaro samarali aloqadorligi.
2. Ta'lim korxonalarini va professional ta'lim dasturlari turlarining xilma-xilligi, ularning fan va texnikaning eng so'nggi yutuqlari, iqtisodiyot va texnologiyalarining eng yuqori andozalari va ko'nnishlaridan foydalanish.
3. Ta'lim muassasalarini zamonaviy o'quv-metodik adabiyot bilan ta'minlash va ularning moddiy-texnik bazasini yaratish hamda ularning moliyaviy ko'rsatkichlarini mustahkamlash.
4. Professional ta'lim tizimiga eng yuqori malakali o'qituvchilarni va mutaxassislarini jalb ettirish.
5. O'quv jarayonini axborotlashtirish va kompyuterlashtirish.
6. Kadrlar tayyorlashning sifat bahosini va obektiv nazorat tizimini qo'llash.
7. Shaxsning rivojlanishi.. sifat va xulqini, qobiliyat intellektini baholash va kasbiy mahorati muammolariga bag'ishlangan psixologik-o'qitishizlanishlari bajarish.
8. O'qituvchilarni yuqori darajada moddiy rag'batlantirish va ularni ijtimoiy himoya qilish.

Bu holatlarning barchasi «Kadrlar tayyorlash milliy dasturida o'z aksini topgan. Bugungi kunning mutaxassisi har tomonlarga rivojlangan yuqori darajadagi intellektga ega bo'lgan, fan asoslarini chuqur o'rgangan bilimdon, zukko, dono, fidoiy, ma'rifatli va ma'naviyatli inson bo'lishi kerak. U o'z mutaxassisligidan tashqari, xorijiy tillardan birini egallagan bo'lishi hamda kompyuter texnikasidan foydalana olishi shart.

Maxsus ta'lim tizimida faoliyat ko'rsatayotgan o'qituvchi o'qitish texnologiyalar, ta'lim-tarbiya jarayonini faollashtirish usullari va o'qitiladigan fanlar bo'yicha sifatli bilim, ko'nikma va malakalarni hosil qilishni ta'minlovchi o'qitish usullari qo'llay bilishi lozim.

U o'qitish texnologiyalarining mohiyati, maqsadi va vazifalarini o'rganib chiqib, ular haqida ilmiy asoslangan ma'lumotlar, amaliy yo'llanmalar ishlab chiqishi, ilg'or o'qitish va axborot texnologiyalarini o'zlashtirganidan so'ng, uni ta'lim tizimiga joriy eta olishi kerak.

Yordamchi maktabda o'qitish texnologiyaalarni o'quv jarayoniga joriy etish masalalari

Yordamchi maktabda o'qitish texnologiyalari o'quv jarayoniga joriy etish ko'larini kengaytirish, bu yo'nalishda ilg'or o'qitish tajribalari tatbiq etish, har bir fan bo'yicha bu sohada aniq rejalari tuzish va amalga oshirish; darslik, o'quv qo'llanma, dastur, tayyorlash, ilmiy-metodik ishlarda, o'quv-ta'biya jarayoniga zamonaviy axborot texnologiyalarini keng joriy etishni rivojlantirish, ulari axborot vositalari bilan ta'minlash harnda kommunikatsion tarmoqlarga bog'lash eng muhim vazifa hisoblanadi.

Yordamchi maktab muassasalaridagi o'quv-tarbiya jarayonida modulli ta'lim texnologiyasi, hamkorlikda o'qitish texnologiyasi, didaktik o'yin texnologiyalar, muammoli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish yo'llari ishlab chiqildi.

O'quvchilarda darslik, ilmiy-ommabop va qo'shimcha adabiyotlar bilan mustaqil ishlash ko'nikmalari, ijodiy va mustaqil fikrlashni rivojlantirish maqsadida modulli ta'lim texnologiyalaridan foydalaniladi. Modulli ta'lim texnologiyalarining o'ziga xos jihati o'rganilayotgan mavzu bo'yicha o'quvchilarning mustaqil va ijodiy ishlashiga imkon beradigan modulli dastur tuziladi. O'quvchilar modul dasturi yordamida mustaqil va ijodiy ishlab, mashg'ulotlardan ko'zlangan maqsadga erishadilar.

Modul dastulari o'rganilayotgan mavzu yuzasidan o'quvchilar bajarishi lozim bo'lgan topshiriqlar, topshiriqlarni bajarish bo'yicha ko'rsatmalari o'zida mujassamlashtiradi.

Ishlab chiqilgan dasturlar mazmun va mohiyatiga ko'ra. o'quvchilarning individual, ikkita o'quvchi birgalikda va kichik guruhlarda hamkorlikda ishlashiga mo'ljallangan modul dastudariga ajratiladi. Modul dasturlarning didaktik maqsadidan kelib chiqib. o'quv-tarbiya jarayonidan o'z o'rnida foydalanish yuqori samara beradi.

O'quv-tarbiya jarayonida hamkorlikda o'qitish texnologiyasi metodlardan foydalanish har bir o'quvchini kundalik qizg'in aqliy mehnatga. ijodiy va mustaqil o'rgatish. shaxs sifatida ongli mustaqillikni tarbiyalash. o'quvchida shaxsiy qadr-qimmat tuyg'usini vujudga keltirish. o'z kuchi va qobiliyatiga bo'lgan ishonchini mustahkamlash. ta'lim olishda mas'uliyat hissini shakllantirishni ko'zda tutadi. Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi har bir o'quvchining ta'lim olishda muvaffaqiyati guruh muvaffaqiyatiga olib kelishini anglagan holda muntazam va sidqidildan aqliy mehnat qilishga. berilgan topshiriqlarni sifatli bajarishga. O'quv materlalini puxta o'zlashtirishga zamin tayyorlaydi.

Maxsus muassasalarda olib boriladigan mashg'ulotlarda hamkorlikda o'qitish texnologiyasining guruhlarda o'qitish. zigzag yoki arra. kichik guruhlarda ijodiy izlanishni tashkil etish metodlaridan foydalanish uchun pedagog har bir metodning didaktik maqsadini anglagan holda o'quv topshiriqlarini tuzadi va ulardan o'z o'rnida foydalanish yo'llarini belgilaydi.

Umuman olganda, Yordamchi maktab ta'lim tizimida faoliyat ko'rsatayotgan har bir pedagog quyidagi o'qitish texnologiyalari.

ya'ni:

- o'qitish texnologiyalarning ilmiy-nazariy asoslari;
- o'qitish texnologiyalar konsepsiyasining rivojlanish tarixi;
- ta'lim jarayoniga texnologik yondashish haqida tasavvurga ega bo'lish;
- o'qitish texnologiyalarning didaktik qonuniyatlarini;
- o'qitiladigan fanga tegishli ilg'or o'qitish texnologiyalarini;

- didaktik jarayonni niallum vaqt chegarasida loyihalanishi;
- o'qitishning faol metodlarini bilish va qo'llay olish;
- uy vazifalarini maqsadli, tashxisli va aniq o'quv element turi tанда bertsh. texnologiya loyihalarining mantiqiy tuzilmasi, korreksiyasi:
- o'quv maqsadlari tavsiyanomasmi ishlab chiqish;

2.2.Yordamchi maktab amaliyotida ta'limga yondoshuvlarning amaliy ahamiyati

O'qitish texnologiyalarining samaradorligi shundan iboratki unda turli o'qituvchilar muayyan fan (mutaxassislik bo'yicha) bir xil (deyarli bir xil) yakuniy natijaga erishish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

An'anaviy yondashuv. Uning asosiy xususiyati. o'qituvchi ma'lum axborotni gapirib beradi. tushuntiradi. talab esa bu bilim xotirasida saqlaydi. "Bilim" tushunchasi xotirada saqlanadigan axbarot ma'nosida tushuniladi. O'quvchida bilim bor-yo'qligi imtixonda shu axabrotga doir bog'lgan savodga yoddan bergan javobiga qarab aniqlanadi. Bunda bilim degani asosan esda qoldirishning natijasidir. u ko'pincha yuzaki bo'lishi xam mumkin. Bunday bilim xotirada uzoq saqlanmaydi. O'quvchi 3 savol berilganda eslashi. ba'zan eslay olmasligi xam mumkin.

An'anaviy o'qitish usulida ta'lim maqsadi dastur talabiga binoan aniq ifodalanmaydi. O'quvchining o'zlashtirish darajasi. sifati xaqida muallim aniq tasavvurga ega bo'lmaydi.

An'anaviy ta'lim mamlakatimiz keng tarqalgan. uning turli jixatlari pedagogika. metodika fanlarida ishlab chiqilgan. katta tajriba to'plangan. An'anaviy ta'lim usulini takomillashtirish soxasida izlanishlar davom etmoqda. Lekin uning obektiv imkoniyatlari cheklangan. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta'lim soxasidagi isloxatlar, tez sur'atlar bilan rivojlanayotgan fan-texnika talablari - ta'lim usuli bilan jamiyatning raqobatbardosh. yuqori malakali kadrlar tayyorlashga. barkamol avlodni shakllantirishga bo'lgan extiyoji o'rtasida nomunosiblikni vujudga keltiradi. Uni ta'limda boshqa yangi yondashuvlarni qo'llash yo'li bilan xal etish lozim.

Tizimli yondashuv. Tizim so'zi - tuzilma qismlardan tuzilgach. birikkan yaxlit narsa yoki xodisa ma'nosini anglatadi. Tizim tushunchasi va so'zi boshqa ma'nolarga xam ega..

"Tizimli yondashuv" tushunchasi kupincha "tizimli metod". "tizimli taxlil usuli" tushunchalari bilan uzviy bog'liq xolda qo'llaniladi. Chunki tizimli taxlil usullari xam obektni yaxlit tizim sifatida o'rganishni nazarda tutadi. Tizimli yondashuv ayniqsa tuzilish - vazifasiga ko'ra bajariladigan taxlilga juda yaqin. Tizimli taxlilning obektni yaxlit narsa yoki xodisa (tizim) xisoblanadi. u. birinchidan. obektning turli qismlarini: ikkinchidan. qismlarning o'zaro bog'liqligini: uchinchidan tizimning chegaralarini va turtinchidan tizimning atrof-muxit bilan bog'liqligi aloqadorligini nazarda tutadi.

Tizimli yondashuvda bir qancha qoida-prinsiplar majmuidan foydalaniladiki. Ular tadqiqotchilik va amaliy faoliyatda yuqori natijalarga erishish imkoniyatini yaratadi. Bunday qoida-prinsiplar qatoriga. jumladan. quyidagilar kiradi: mavxumlikdan yaqqollikka karab borish analiz bilan sintczning. mantiqiylik bilan tarixiylikning birligi obektda bog'lanishlar va o'zaro ta'sirlaming turlichaligi obektning tuzilishi - vazifalari va kelib chiqishi xaqidagi tasavvurlaming birligi va boshqalar.

O'qitish tizimi-inson bolasini barkamol shaxs. biror kasb egasi sifatida shakllantiruvchi yaxlit ijtimoiy - o'qitish xodisa bo'lib uning tarkibi o'qitish jarayonning obektlari va su'bektlari shakl-usullari ular o'rtasidagi munosabatlar o'zaro ta'svirlar, ularni boshqarishdan iborat. Ularning xar bin ma'lum qismlardan tuzilgan tizim xisoblanadi.

Shuningdek ta'lim-tarbiyaning maqsadi shakl-usullari tizimi ta'lim-tarbiyaning yo'nalishlari turlari tizimi uzluksiz ta'lim tizimi ta'lim muassasalari tizimi o'qitishi xtisosliklar tizimi o'quv vazifalari o'quv axbarotlash tizimi kabilar xam o'qitish tizim tarkibiga kiradi.

Texnologik yondashuv texnologiya yunoncha so'z bo'lib texnik - mahorat san'at logos-tushuncha ta'limot ma'nolarini anglatadi. Texnologiya tushunchasi - tayyor maxsulot olish uchun ishlab chiqarish jarayonlarida qo'llaniladigan usul va metodlar majmui shunday usul va metodlarini ishlab chiquvchi va takomillantiruvchi fan sifatida ta'ritlanadi. Ishlab chiqarish jarayonlarining tarkibiy qismi bo'lgan amallar - materiallarni qazib olish, tashish taxlash saqlash va boshqalar xam texnologiya deyiladi. Texnologiya ishlab chiqarish jarayonlari tasvirlash ularni bajarish bo'yicha qo'llanmalar, texnik qoidalar va talablar, grafiklar xam kiradi. Sanoat ishlab chiqarishi soxasida yuzlab texnologik loyixalar (jarayonlar) yaratilgan. Ular agar texnik xujjat talablariga amal qiliasa ishni kim va qayerda bajargandan qat'iy nazar maxsulot sifati va natijasi kafolatlanadi.

Ta'lim ishiga texnologik yondashuv:

- o'qish o'qitish jarayonini o'zaro o'zviy bog'lik etaplar, fazalar, amallarga ajratish, bulishni;

- ta'limdan muljallangan natijaga erishish uchun bajariladigan xarakatlarni muvofiklashtirish, ketma-ket, boskichma-boskich amalga oshirishni;

- loyihalashtirilgan ishlar, amallarning barchasini birdek bajarishni nazarda tutadi.

Bu yondashuv asosan reprodaktiv ta'limga xosdir. Reprodaktiv ta'lim tipik vaziyatlarda biror ish-xarakatni oldin bilib olingan qoidalar asosida bajarishdir.

Reprodaktiv darajasi uchun o'qitish texnologiya usulida ta'lim - takror ishlab chiqiladigan jarayon sifatida tashkil etiladi, undan kutiladigan natija xam mufassal tasvirlanib aniq qayd etiladi. O'quv materiallari aniq ifodalangan o'quv maqsadiga mos qayta tuzib, ishlab chiqiladi, ayrim bo'lak (qism, modul) larga ajratiladi.

O'quv ishi etalonda kursatilgan natijaga erishishni nazarda tutadi. Tadqiqiy-ijodiy yondashuv. Bu yondashuv ta'limning maqsadi talabada biror muammoni yechish qobiliyatini o'stirish, yangi bilim (tajriba)ni mustaqil o'zlashtirish, xarakterning yangi usullarni topish, shahsan tashabbus kursatishni ko'zda tutadi.

Tadqiqiy yondashuv faoliyatning ijodiy aktiv xarakteri bilan bog'liq.

Bu yondashuvda o'quvchining o'quv-bilish faoliyatiga pedagog rag'batlantiruvchi usulda rahbarlik qiladi. Bolaning shaxsiy tashabbusini qo'llab- quvatlaydi. Bola bilan hamkorlik qiladi. O'quvchining qiziqishlarini oldingi o'ringa qo'yadi. Tadqiqiy yondashuv bo'yicha ham o'qitish texnologiya variantlari ishlab chiqilgan.

Pedagogika nazariyasi va amaliyotida an'anaviy yondashuv o'z imkoniyatlarini saralab bo'ldi tizimli texnologik tizimli va tadqiqiy yondashuvlardan xar bining ta'lim tizimida o'z o'rnini bor va o'z joyida qolishi lozim.

Rivojlangan mamlakatlarda ta'limning turli darajalar uchun (reproduktiv, maxsuldor, tadqiqiy-ijodiy) o'qitish texnologiya ishlab chiqilgan.

Keng ko'lamda amalga oshirilayotgan ta'lim isloxlari ta'limning ilg'or texnologiyalarini o'rganish va o'quv-tarbiya jarayoniga joriy etishni taqozo qiladi.

Bu o'z navbatida pedagog xodimlardan ta'lim sohasiga texnologik yondashuvni, O'qitish texnologiya usulini egallashni va O'zbekistonning milliy, ma'naviy-madaniy xususiyatlari, tarixiy ilg'or an'analarni hisobga olgan holda o'qitish amaliyotda qo'llash va rivojlantirishni talab etadi.

Texnologik yondashuv mavjud an'anaviy o'quv jarayoniga faqat kompleks tarzdaгина emas pedagoglar tomonidan o'zlashtirilishi, metodik qo'llanmalar o'quv-moddiy baza yaratilishiga qarab bosqichma-bosqich ayrim elementlari amalga oshirilaverishi ham mumkin.

Bu birinchi navbatda o'qitish texnologiyalarining muxim qismi bo'yicha ta'lim maqsadlarini aniqlash usullariga taalluqlidir.

O'qitish tadqiqotchilar ta'lim-tarbiya xodisalarim o'rganganda ma lum darajada bu yondashuvlarnii qo'llaydilar. Amaliyotchi pedagoglar xam bundan mustasno emas. Agar har bir yondashuv nimaligini anglab. o'z o'rnida maqsadga muvofiq tarzda unga amal qilinsa o'quv-tarbiyaviy ishlar samardorligi ancha yuqori bo'lar edi.

Ta'limda texnologik yondashish variantlari. O'qitishga texnologik yondashish ya'ni o'quv jarayonini ham ishlab chiqarish jarayoni kabi takrorlanuvchan xarakterga ega bo'lishini ta'minlashga oid dastlabki izlanishlar o'tgan asring 50-yillarida amerikalik pedagog olimlar tomonidan olib borilgan. Xususan, «o'qitish texnologiyasi» iborasi ham birinchi marta amerikalik olim B.Skinner tomonidan ishlatilgan. U - «o'qitish texnologiyasi-psixologiya fani yutuqlarining o'qitish amaliyotda qo'llanishidan iborat deb ta'riflagan bunga asosan shuni ta'kidlash lozimki hozirgi kunda «o'qitish texnologiya» tushunchasiga «yangi», «ilg'or» va « progressive kabi so'zlami qo'shib aytilishi ham nisbiy mazmunga ega. Xususan. O'zbekistonda o'qitishga texnologik yondashishni ommalashmaganligining sababi. bu usulni «test» va «bixevionzm» tushunchalari bilan bog'liqligi sobiq ittifoq miqyosida ularning o'qitish amaliyotda foydalanishni uzoq vaqt ma'n qilinganligidir.

Yuqoridagi ta'riflarda o'qitish texnologiyalarining tub mohiyati o'quv jarayoniga tizimiy yondashishdan lborat ekanligi yaqqol ko'zga tashlanadi.

Xalqaro YUNESKO tashkiloti tomonidan o'qitish texnologiya tushunchasiga quyidagicha ta'rif berilgan:

“O'qitish texnologiya-ta'lim shakllarini maqbullashtirish uchun inson va texnik resurslami hamda ularning o'zaro ta'sirini e'tiborga olgan holda.

O'qitish va bilimlarni o'zlashtirish jarayonini yaratish. qo'llash va aniqlashning tizimiy uslubidir” tariqasida keltirish mumkin:

- 1) mantiqiy o'zaro bog'liq. qisqa qadamlar orqali;
- 2) deyarli xato qildirmasdan;
- 3) to'g'ri javob berishga yo'llaydi va u;
- 4) o'z o'rnida baholanib mustahkamlanishi natijasida;
- 5) o'qitish maqsadlarini belgilovchi aniq javoblarga ketma-ket

ravishda yaqinlashtirib boradi.

O'tgan asrning 50-yillar o'rtasida jaxon pedagogikasida o'quv jarayonini to'la-to'kis yangi o'ziga xos «texnologik» usulda tashkil etishga yondashish vujudga kelgan edi. 60-yillarda esa o'qitish uslublarining o'ta turli-tumanligi ulardan o'quv jarayonining tashkil etishda foydalanishni qiyinlashtirayotganligi etirof etila boshlandi. Shuning uchun ham. barcha uslublar uchun umumiy bo'lgan ilmiy asos yaratish zarurati tug'ildi. Natijada. o'qitish uslublar texnologiyasi yoki o'quv jarayonining tashkil etish texnologiyasi. ya'ni «ta'lim texnologiyasi tushunchasi vujudga keldi.

AQShda 1961 yildan «O'qitish texnologiya» jumali chiqarila boshlandi. Shuningdek. Angliyada «O'qitish texnologiya va o'quv jarayoni» (1964 yildan). Yaponiyada «O'qitish texnologiya» (1965 yildan), Italiyada ham shunga o'xshash jumal (1971 yildan) chiqa boshlagan. YUNESKO 1971 yildan boshlab ta'lim bo'yicha xalqaro byuroning «O'qitish texnologiyalar» byulletenini chiqarib kelmoqda. Rossiya Federatsiyasida esa 1997 yildan boshlab «Maktab texnologiyalari» jurnali ta'sis etildi.

Shuni ta'kidlash lozimki. «pedagogik texnologiya»ni «o'qitish texnologiya» tushunchasi bilan ayniylashtirmaslik zarur. Chunki. o'qitish texnologiyada o'quv jarayonining aniqlashtirilgan o'quv maqsadlarni belgilashdan boshlab to yakuniy o'quv natijalarga erishilganlikni nazorat qilishgacha bo'lgan jarayonni loyihalanadi. E.Frene «uslub» tushunchasi

konstruktiv xarakterga ega bo'lmaganligi uchun uning o'rniga «texnologiya» tushunchasini taklif etgan. Demak o'qitish texnologiyalari (muammoli o'qitish rivojlantiruvchi ta'lim modulli o'qitish didaktik o'yinlardan foydalanish va h.k.) o'qitish texnologiya bo'yicha loyihalangan o'quv jarayonini amalga oshirishning turli didaktik konstruksiyalari sifatida namoyon bo'ladi.

O'qitish texnologiyaning tub mohiyati. o'qitishning an'anaviy og'zaki bayon qilish usulidan voz kechib o'quvchilarni ko'proq mustaqil ta'lim olishga undashdan iborat. Bunda o'qituvchi va o'quvchilar bilish faoliyatining boshqaruvchisi maslahatchi yakuniy natijaga yo'llovchi shaxs vazifasini bajaradi. O'qitish jarayoniga texnologik yondashish (o'qitish texnologiya) ning o'ziga xos xususiyatlaridir.

Xulosa

Mustaqil O'zbekistonimiz ta'lim tizimida kadrlarni tayyorlashga bo'lgan talablar ortib bormoqda, barkamol yosh avlodni umuminsoniy va milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalab, ularga zamon talablariga mos bilimlar berishni taqozo etmoqda. Bunday talablarni bajarishda, albatta, tavsiya qilinayotgan usul va texnologiyalarning pedagogik nuqtai nazardan asoslangani, qolaversa, pedagogika fani ham zamonaviy imkoniyatlar va qonuniyatlarni o'zida mujassamlagan va aks etgan bo'lishi kerak.

Shuni ta'kidlash lozimki. «pedagogik texnologiya»ni «o'qitish texnologiya» tushunchasi bilan ayniylashtirmaslik zarur. Chunki. o'qitish texnologiyada o'quv jarayonining aniqlashtirilgan o'quv maqsadlarni belgilashdan boshlab to yakuniy o'quv natijalarga erishilganlikni nazorat qilishgacha bo'lgan jarayonni loyihalanaadi. E.Frene «uslub» tushunchasi konstruktiv xarakterga ega bo'lmaganligi uchun uning o'rniga «texnologiya» tushunchasini taklif etgan. Demak o'qitish texnologiyalari (muammoli o'qitish rivojlantiruvchi ta'lim modulli o'qitish didaktik o'yinlardan foydalanish va h.k.) o'qitish texnologiya bo'yicha loyihalangan o'quv jarayonini amalga oshirishning turli didaktik konstruksiyalari sifatida namoyon bo'ladi.

O'qitish texnologiyaning tub mohiyati. o'qitishning an'anaviy og'zaki bayon qilish usulidan voz kechib o'quvchilarni ko'proq mustaqil ta'lim olishga undashdan iborat. Bunda o'qituvchi va o'quvchilar bilish faoliyatining boshqaruvchisi maslahatchi yakuniy natijaga yo'llovchi shaxs vazifasini bajaradi. O'qitish jarayoniga texnologik yondashish (o'qitish texnologiya) ning o'ziga xos xususiyatlaridir.

Ilovalar

St	Asosiy tushunchalar	A'naviy dars	Interfaol dars
1	Qo'llanish darajasi	Barcha mavzular bo'yicha ular uchun qulay bo'lgan dars turlari shaklida qo'llaniladi.	Ayrim mavzular bo'yicha interfaol darsning qulay bo'lgan turlari shaklida qo'llaniladi. Boshqa mavzular uchun an'anaviy dars qo'llaniladi
2	Dars maqsadi	Dars bilim, ko'nikma. malakalaini shakllantirish. mustahkamlash.	Dars mavzusi bo'yicha mustaqil fikrlash. xulosaga kelish. ularni bayon qilish. himoyalashga o'rnatish.
3	O'qituvchining vazifalari va ish usullari	Yangi mavzuni tushuntirish. mustahkamlash, nazorat. topshiriqlar berish.	O'quvchilarni mustaqil ishlashlarini va taqdimotlarini tashkil qilishi boshqaruv nazorat. yakuniy xulosalarni asoslab berish.
4	Darsga tayyorgarlikka talablar	Dars rejasi. konspekt va didaktik vositalarni tayyorlash.	Interfaol dars ishlanmasi, mustaqil ishlar uchun topshiriqlar. tarqatma materiallar boshqa zarur vositalarni tayyorlash.
5	O'quvchilarni tayyorgarligiga talablar	Oldingi dars bo'yicha vazifalarni bajarib kelish.	Yangi dars mavzusi bo'yicha asosiy tushunchalarni va dastlabki ma'lumotlarni bilish.
6	O'qituvchining vazifalari va ish usullari	O'qituvchini tinglash va o'zlashtirish. berilgan topshiriqlarni bajarish.	O'qituvchi bergan topshiriqlarni bajarish bo'yicha mustaqil fikrlash. o'z fikr, xulosalarini boshqalarga solishtirish va yakuniy xulosaga kelish

7	Vaqt taqsimoti	Dars vaqtining ko'p qismi o'qituvchining yangi mavzuni tushuntirishi, tahlil qilishi. topshiriqlarni tushuntirishi. o'zlashtirishni nazorat qilishiga sarflanadi.	Dars vaqtining ko'p qismi o'quvchilarning mustaqil topshiriqlarni bajarishi, fikr almashishi. mushohada qilishi. o'z xulosalarini bayon qilishi va himoyalashiga sarflanadi.
8	Darsning modul va algoritmi	Darsning modul va algoritmalaridan har bir o'qituvchi o'zi qo'llayotgan metodga muvofiq foydalanadi.	Har bir dars oldindan tayyorlangan modullar va algoritmlarga. loyihalarga muvofiq o'tkaziladi.
9	O'quvchilarning faollik darajasi	O'qituvchi liq tomonlama faol. o'quvchilar diqqatini jamlash tushunish. fikrlash. topshiriqlarni bajarish bo'yicha faol.	O'qituvchi ham. o'quvchilar ham har tomonlama faol. shakllari: o'qituvchi- o'quvchi: o'quvchi- o'quvchi; o'quvchi-kichik guruh; kichik guruh-kichik guruhli; o'quvchi-o'qituvchi: kichik guruh- o'qituvchi. guruh-o'qituvchi.
11	Kutiladigan natija	Mavzu bo'yicha o'quvchilarning bilim. ko'nikma. malakalarni o'zlashtirishlari.	Mavzu bo'yicha o'quvchilarning o'z fikr. xulosalarini shakllantirish, ulami mustaqil bilim olishga o'rgatish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. O`zbekiston kelajagi buyuk davlat. Toshkent. O`zbekiston. 1992 y.
2. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. Toshkent. O`zbekiston. 1995 y.
3. Karimov I.A. “Barkamol avlod O`zbekiston taraqqiyotining poydevori”. Toshkent. 1998 y.
4. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. Toshkent. 2008 y.
5. Karimov I.A. Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi, O`zbekiston sharoitida uni barataraf etish yo`llari va choralari. Toshkent. 2009.
6. Karimov I.A. “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi”. O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo`shma majlisi. 2010 yil.
7. Yo`ldoshev J.G'., Usmonov S. Pedagogik texnologiya asoslari. Toshkent. “O`qituvchi”.2004.-102 b.
8. “Innovatsiya v obrazovani” jurnal. Moskva. 2006 2-3-sonlari.
9. Muhamedov G.I., To'raqulov X.A. O'qitish tadqiqotlarning ilmiy - nazariy asoslari. - Ji2zax: Fan. 2004. - 228 b
10. To'raqulov X.A. O'qitish tadqiqotlarida axborot tizimlari va texnologiyalari. - Toshkent: Fan. 2006. - 240 b.
11. Farberman B.L. Ilg'or pedagogik texnologiyalar. T.: OO'MMMI, 2000.
12. Po`latova F. Oligfrenopedagogika. T, 1997.
13. Abduqodirov A.A., Pardaev A.X. Masofali o`qitish nazariyasi va amaliyoti. Monografiya.— T.: Fan. 2009. - 145 b
14. Muminova L.R., Ayupova M.Yu. Logopediya. T., 1995.
15. Niyozmetova «Alohida yordamga muxtoj bolalarni axloqiy ruhda tarbiyalash» Toshkent «O`zbekiston» nashriyoti .
16. Xaqberdiyev «Bola intellektini o`stirishda maktab va ota onalar hamkorligi» Toshkent «O`zbekiston»

17. Golish L.V., Fayzullayeva D.M. O'qitish texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish. -T.. 2010
18. U.Nazaraliev, M.Tolipov Defektologik tushunchalarning izoxli lug'ati. Toshkent 2010 yil.
19. Hakimova M.F. Maxsus maktablarda ta'lim-tarbiyaning pedagogik asoslari O'quv qo'llanma. - Toshkent, Mehnat. 2000. -94 b.
20. Ziyomhammadov B. Pedagogika. O'quv qo'llanma. – Tashkent
21. K.Mamedov, G.Berdiyev, S'H.Xoliqova. Maxsus psixologiya ma'ruzalar matni. Toshkent, 2001.
22. Ismoilova Z.K.. Pedagogikadan amaliy topshiriqlar: O'quv qo'llanma. - Toshkent: Fan. 2001. - 159 b
23. S.Sh.Aytmetova Yordamchi maktab o'quvchilarining psixik rivojlanish xususiyatlari Toshkent Ukituvchi 1984-yil
24. Mavlonova. O. Turayeva Murodov «Pedagogika» O'qituvchi 2000-yil

Internet saytlari:

25. www.pedagog.uz
26. www.tdpu.uz
27. [ziyonet.www.@mail.ru](mailto:ziyonet.www@mail.ru)